

Kompyuter viruslari va virusdan himoyalash usullari



11-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fani darsligi
asosida 33-mavzu

Kompyuter viruslari o‘zini-o‘zi ko‘paytirib, dasturlar va xotiraning tizimli sohalariga kira oluvchi buzg‘unchi dasturlardir.



Viruflarning asosiy maqsadi kompyuterlarni bir maromda ishlash tizimiga zarar yetkazish, foydalanuvchilarni kompyuter tarmoqlaridagi ma'lumotlar va axborotlar manbalaridan foydalanishni cheklashdan iborat.



**Umuman olganda,
buzg'unchi dasturiy
ta'minotning barchasini
umumiy nom ostida
viruslar deb ataladi.**





Djon fon Neyman

**Kelib chiqishi venger
bo'lgan Amerikalik
olim Djon fon Neyman
1951-yili o'zi
ko'payuvchi dasturlar
mexanizmi nazariyasini
taklif qiladi.**



**Birinchi viruslar sifatida
Apple II shaxsiy
kompyuterlari uchun
1981-yilda yaratilgan
Viras 1,2,3 va Elk cloner
dasturlari hisoblanadi.
1996- yilda Windows
uchun Win95.Boza deb
nomlanuvchi birinchi
viras yaratildi.**



Kompyuterning viruslar bilan zararlanganligi quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi:



- **Ekranda kutilmagan xabar, tovush yoki tasvirlar hosil bo‘ladi;**
- **Kompyuterda noma‘lum dasturlarning ishga tushishi;**
- **Kompyuter tez-tez “osilib” qolishi yoki sekin ishlashi;**
- **Fayllar yo‘qolib yoki kengaytmasining o‘zgarib qolishi.**





Oldinlari turli ko'ngilochar dasturlar jamlangan ma'lumot tashuvchi disketlar virus tarqalishining asosiy vositasi hisoblangan bo'lsa, hozirgi paytga kelib, lokal va Internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan viruslar asosiy xavf manbaiga aylanib bormoqda.



Troyan nomi ostida ma'lum bo'lgan virus kompyuter xotirasiga biror ochiq dasturiy ta'minot ko'rinishida kiradi va axborotni yig'ish, kerakli manzilga jo'natish, kompyuter tizimini ishdan chiqarish, kompyuter resurslaridan g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanish vazifalarini bajaradi.



**Viruslarni
kompyuter
xotirasiga kirib
olishini istisno
qilish uchun
quyidagi xavfsizlik
tadbirlariga amal
qilish lozim:**

**Adminstratoming alohida
imkoniyatlar yaratuvchi
yozuvlaridan zarurat
tug'ilmasa, foydalanmaslik;**

**Shubhali manbalardan
kelgan noma'lum fayllami
ishga tushirmaslik;**

**Tizimli fayllami ruxsatsiz
o'zgartirmaslik.**



Antiviruslar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Detektor - dasturlar;

2. Doktor - dasturlar

3. Revizor - dasturlar;


4. Filtr - dasturlar.



Antiviruslar ichida eng ishonchli himoya vositasi sifatida revizor - dasturlar hisoblanadi.



Revizorlar kompyuterdagi dasturlarning viruslar bilan zararlanmagan dastlabki holatini yodda saqlaydi va joriy holatni solishtirib boradi.



Internet tarmog'iga ulangan kompyuter - yangilash yordamida eng kamida bir oyda bir marta antiviruslar bazasini yangilab turish zarur.

Buning natijasida foydalanuvchi kompyuterni jahon hisoblash to'rida to'xtovsiz ishlab chiqilayotgan yangi viruslardan himoyalaniшни mustahkamlaydi.



Ishchi dasturlar yordamida kompyuterni himoyalash rejasini amalga oshirish, statistikasi va monitoringini olib borish, zaruriyat bo'lganda qaytadan tiklash uchun ehtiyot disklarini yaratish kabi vazifalarni bajarish mumkin.



Savol va topshiriqlar

- 1. Kompyuter viruslari deganda nimani tushunasiz?**
- 2. ESET ENDPOINT Antivirusi dasturidan foydalanishni tushuntirib bering.**

